

**‘TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XAMRAYEV DJAMSHID PANJIEVICH

**TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA MAHALLIYLASHTIRISHNI
MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH
("TOSHKENT METROPOLITENI" DUK MISOLIDA)**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

Xamrayev Djamshid Panjiyevich

Temir yo‘l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmini
takomillashtirish (“Toshkent metropoliteni” DUK misolida)..... 3

Хамраев Джамшид Панжиевич

Совершенствование механизма финансирования локализации на
железнодорожном транспорте (на примере ГУП “Ташкентский
метрополитен”) 27

Khamrayev Djamshid Panjievich

Improving the financing mechanism for localization in railway transport
(based on the example of the sue “Tashkent metro system”)..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 56

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XAMRAYEV DJAMSHID PANJIEVICH

**TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA MAHALLIYLASHTIRISHNI
MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH
("TOSHKENT METROPOLITENI" DUK MISOLIDA)**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Тема диссертации доктора философских наук по экономике (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за номером B2023.3.PhD/Iqt3284.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу (tsue.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель: Худойкулов Хуршид Хуррамович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Тухлиев Бозорбой Каримович
доктор экономических наук, профессор
Алладустов Рустам Джонмуратович
доктор философских наук по экономике

Ведущая организация: Академия банковского дела и финансов Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится «16» 05 2024 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/10.12.2019.I.16.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. (Адрес: 100066, город Ташкент, улица Ислама Каримова, д.49. Тел.: (99871) 239-28-72; факс: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный № 1499. (Адрес: 100066, город Ташкент, улица Ислама Каримова, д.49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz)

Автореферат диссертации разослан «2» 05 2024 года.
(реестр протокола рассылки № 30 от «2» 05 2024 года.



Мехмонов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

У.В. Гафуров
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

С.К. Худойкулов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida temir yo‘l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga iqtisodiy siyosatning strategik vazifasi sifatida alohida e‘tibor qaratilmoqda. “Lotin Amerikasi davlatlaridan Braziliya, Argentinada va Meksikada, Osiyo mintaqasi davlatlaridan Tayvan va Janubiy Koreyada temir yo‘l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish natijasida yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushining o‘sishi va investitsiya oqimining ortishiga, shuningdek iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini diversifikatsiya qilinishiga eshiltgan”¹. Rivojlanayotgan davlatlar temir yo‘l transporti iqtisodiyotning eng muhim bo‘g‘ini bo‘lganligi sababli ushbu tarmoqni rivojlantirish va moliyalashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Alohida ta’kidlash lozimki, temir yo‘l transportini moliyalashtirishda davlat byudjeti, xalqaro moliya institutlari va xususiy mablag‘larning o‘rni muhim hisoblanadi.

Jahonda moliyaviy inqirozlar va global raqobatning kuchayib borishi sharoitida temir yo‘l transportida moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning asosi bo‘lgan davlat byudjeti, xalqaro moliya institutlari va xususiy mablag‘lar moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish yo‘llarini tadqiq etishga yo‘naltirilgan ko‘plab ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Global moliyaviy beqarorlik sharoitida temir yo‘l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmining tarkibiy tuzilishi va shakllanish manbalarini tadqiq etish, uning nazariy, amaliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag‘larni o‘zlashtirish mexanizmini qulaylashtirish, temir yo‘l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligini oshirish kabi masalalar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida mamlakatda mahalliyashtirish dasturini rivojlantirish masalalari, jumladan temir yo‘l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mazkur vazifalarning izchil va samarali bajarilishi mamlakatda temir yo‘l transportini mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, uning iqtisodiyotdagi ulushini hamda milliy iqtisodiyot tarkibidagi salmog‘ini sezilarli darajada oshirish, shuningdek yirik loyihalarni amalga oshirishda, mahalliyashtirishni moliyalashtirishga doir loyihalarni va qarorlarni qabul qilishda, moliyalashtirish mexanizmini baholashda moliyaviy pul oqimlari metodologiyalaridan foydalanish, moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishda zamonaviy usullaridan foydalanish uchun har tomonlama imkon yaratadi. Shunga ko‘ra, mazkur muammolarni ilmiy jihatdan har tomonlama

¹ Лукьянчук Е. Импортозамещение: зарубежный опыт. № 15 (786) 18 апреля 2011 г. Версия для печати Аналитика. Аптечные сети в Украине, Новости фармацевтики и фармации. Автор. <http://www.apteka.ua/category/analytical>

va tizimli hal etishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda PQ-465-son “2023-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 22-yanvardagi PQ-98-son “2022-2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 16-oktyabrdagi PQ-5260-son “Toshkent metropoliteni faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 19-maydagi PQ-2979-son “Toshkent shahrida yer usti halqa metro liniyalarining qurilishi” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagi 968-son “Toshkent shahridagi metropoliten yer usti liniyasi uchun harakatlanuvchi tarkib vagonlarini xarid qilish” loyihasini texnik-iqtisodiy asoslashni tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 29-oktyabrdagi 125-son “Toshkent metropolitenining Sergeli yo‘nalishini qurish” loyihasining texnik-iqtisodiy hisobini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Temir yo‘l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishning ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy muammolari bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning qator olimlari, jumladan F.List, M.Porter, X.Cheneri, M.Bruno, A.Straug, N.Karter, I.Tyunen, V.Launxardt, A.Veber va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan².

Jumladan, F.List import o‘rnini bosish nazariyasida mamlakatning iqtisodiy o‘sishi hamda ichki bozor ehtiyojlarini to‘la qondirish uchun mahalliy ishlab chiqarish bazasini yaratish zarurligiga e‘tibor qaratadi. Shuningdek, ayrim davlatlarning iqtisodi o‘z qonunlarga muvofiq rivojlanishini hamda o‘ziga xos «milliy iqtisodiyoti» mavjudligi, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish uchun eng qulay sharoitlarni yaratishi lozimligini ta’kidlaydi³.

² Тюнен И.Г. // Тихоходки — Уляново. — М.: Советская энциклопедия, 1977. 1969-1978, т. 26). Лаунхардт W. Theorie der Kommerziellen Trassierung der Verkehrswege. Zeitschrift des Hannoverschen Architekten- und Ingenieurvereins // Hannover. — 1872. — Т. 18. — С. 522. Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. — М.:ГУ ВШЭ, 2000. -С. 14, 40-51. — 495 с. -ИСБН 5-7598-0074-4. Блауг М. Теория размещения промышленных предприятий Вебера // Экономическая мысль в ретроспективе = Economic Theory in Retrospect. — М.: Delo, 1994. — С. 578-580. — XVII, 627 с. — ISBN 5-86461-151-4. Лёш А. Пространственная организация хозяйства. М.: Наука, 2007. 664 с. ISBN 978-5-02-035367-1 (первое издание — Лёш А. Географическое размещение хозяйств. М.: Изд-во иностр. лит., 1959. 455 с) (нем. Die räumliche Ordnung der Wirtschaft: eine Untersuchung über Standort, Wirtschaftsgebiete und internationalem Handel. Jena: Fischer, 1940).

³ Федосеева Г.А. Сущность и развитие теории импортозамещения // известия Санкт Петербургского государственного экономического университета 2015 г., 5 ст.

M.Porter mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish muammolarini o‘rganib chiqib, milliy tovar ishlab chiquvchilarni faol qo‘llab-quvvatlash, faqat ayrim omillar mavjud bo‘lsa samarali bo‘lishini xulosa qilgan. Ichki bozorda samarali raqobatni tashkil etish uchun talablarning tegishli shartlarini, uzoq muddatli imtiyozlarni qo‘llashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni vaqtida cheklash lozimligini ta’kidlagan.

MDH mamlakatlari olimlaridan Vazyanskiy A.M., Kovalev P.A., Medved A.A., Fedoseeva G.A., Kovalev P.A., Nikinov Yu., Demin A., Palander T., Lyosh A., Kondratev V.B., Falman V.K., D.N.Zaysev, B.A.Rayzberk, L.Sh.Lofovskiy, Ye.B.Starodubseva, Kalashnikova T.M., Nazarchuk Ye.N., Starovoytova O.V., Azoev L.N., Suchkova A., Smirnov D.A., Berezinskaya O.B., Vedev A.L., Kadochnikov P.A., Baranov E.F., Volkova N.N., Volkodavova Ye.V. kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida mazkur muammoning turli jihatlari tadqiq etilgan⁴.

Temir yo‘l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan S.G‘ulomov, Q.Abdurahmanov, A.Sh.Bekmuradov, B.Salimov, M.Tusunxodjayev, N.Xaydarov, A.Burxanov, N.Xoshimova, N.Maxmudov, B.Berkinov, F.Egamberdiyev, L.M.Tursunxo‘jaev, N.M.Mahmudov, M.R.Boltabayev, I.S.To‘xlijev, A.M.Qodirov, A.T.Yusupov, A.Aliev, A.Xabikariyeva, A.Sherxonov, E.A.Ishmuhamedov, M.S.Kovbosenko, R.M.Salavatulin, G.N.Matchina, T.I.Iskandarov, N.Q.Boboxo‘jayev, O.A.Sultonxo‘jayev, R.Sayfulina, S.M.Mansurov, T.T.Topvoldiyev, R.R.Raxmanov, D.A.Mirxanova, Sh.I.Mustafakulov, I.X.Boboyev va boshqalar tomonidan ham o‘ziga xos tarzda amalga oshirilgan⁵.

⁴ Вазянский А.М. Локализация производства как проблема современного менеджмента. По специальности 08.00.05-Экономика и управление народным хозяйством диссертация на соискание кандидата экономических наук 153 стр. Нижний Новгород — 2007.; Ковалев П.А., Медвед А.А. Требования локализации производства как способ привлечения прямых иностранных инвестиций в российское автомобилестроение, 2012, журнал, Экономика и управления, 21-24 с.; Кондратеев В.Б. Локализация производства как инструмент модернизации. Перспективы. Электронный журнал 2016.; Никинов Ю. Импортозамещающая политика и увеличение конкурентоспособности экономики России (Материалы круглого стола). Москва, 2004 г. стр-3.; Демин А. Государственная политика в области импортозамещения. Москва, 2004 г. стр-15.

⁵ Гулямов С. С., Шермухамедов А. Т. Модел развития Узбекистана: интеллектуального потенциала в гражданском обществе // Научно-методический электронный журнал «Концепт». –2017.–Т. 14.– С. 77–82. – URL: <http://э-концепт.ру/2017/770628.htm>.; Абдурахманов К. Узбекистан на пути к инновационному развитию. Монография. — Т.: Ташкентский филиал РЕУ им. Г. В. Плеханова, 2018. — 136 с.; Бекмуродов А.Ш., Янг Сон Бе. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана: Кластерный подход. Монография. -Т.: ТГЕУ, 2006. -112 с.; Salimov B. Hududlar va sanoat sohasi bo‘yicha kichik biznesning rivojlanish dinamikasi va xususiyatlari. «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2019-yil. 1-7 b.; Турсунходжаев М. Развитие малого бизнеса в условиях глобализации. 2011-у «UZR» Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari va ularni hal qilish yo‘llari Учебное пособие «экономика труда»2010 филиал ГоуВОб Российский экономический университет им. Г.В. Плеханов в городе Ташкенте.; N.X.Xaydarov. Ishlab chiqarish korxonalarini mahalliyashtirishda investitsiyalarning o‘rni. Milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konfrensiya. 2013 yil 15 noyabr Tezislar to‘plami. 13-18 betlar. A.Burxanov. Sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash strategiyasi. Monografiya. -Toshkent: «Fan», 2009. 216 b.; Хошимова Н. Антикризисное управление предприятием. Учебное пособие. Ташкент, издательство «Тафаккур каноти». 2016. – 281 с.;Z.I.Xusanov. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning mintaqaviy xususiyatlari (Navoiy viloyati misolida) 08.00.12-Mintaqa

Yuqorida nomlari qayd etilgan mualliflar tomonidan sanoat tarmoqlari ishlab chiqarish, asosan avtosanoat, meva-sanoatda hamda butlovchi buyumlarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rivojlantirish masalalari nazariy jihatdan yoritib berilgan bo'lsada, biroq mamlakat temir yo'l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmiga ta'sir etuvchi turli omillarni inobatga olgan holda takomillashtirish bo'yicha yetarlicha o'rganilmaganligi, shuningdek, Toshkent metropoliteni faoliyatini mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha kompleks ilmiy izlanishlar olib borilmaganligi mazkur tadqiqot mavzusining tanlanishiga asos bo'ldi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-1-raqamli «O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish» mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi temir yo'l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

temir yo'l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirishning tarkibi, shakllanish manbalari, asoslari va obyektiv zarurligini tadqiq etish;

temir yo'l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirishning nazariy va amaliy-huquqiy asoslarini o'rganish va tegishli takliflar ishlab chiqish;

temir yo'l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirishning amaldagi holatini xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari bilan taqqoslash;

temir yo'l transportini mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmining amaliy-huquqiy asoslarini o'rganish va tegishli takliflar ishlab chiqish;

temir yo'l transportini mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmining amaldagi holati bo'yicha mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tasarrufidagi "Toshkent metropoliteni" DUK hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib temir yo'l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiyalash, tahlil va statistik guruhlash, kuzatuv, ekspert baholash, qiyosiy tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasi. O'zB. Milliy universiteti. Toshkent — 2012.; Sh.I.Mustafakulov. O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.Karimovning «Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish» mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha maxsus kurs. 365 bet. 2013.

metro yoʻnalishlari boʻyicha yoʻlovchilarni tashish masofasiga muvofiq ravishda tabaqalashgan tarif boʻyicha amalga oshiriladigan toʻlov tizimini joriy qilinishi orqali metropoliten asosiy faoliyatidan tushadigan daromadlar hajmini 50 foizgacha oshirish taklifi ishlab chiqilgan;

jamoat transportida yoʻlovchi tashishda haq toʻlash uchun moʻljallangan, hisobi toʻldirib turiluvchi debet toʻlov kartasiga asoslanuvchi elektron toʻlov tizimi hisoblangan ATTO xizmatini joriy qilish orqali Toshkent metropoliteni asosiy faoliyati xarajatlarini qisqartirish va daromadlarini oshirish taklifi asoslangan;

Toshkent metropoliteni bekatlarning oʻtish yoʻlaklarida va platformalarda boʻsh turgan joylarni ijaraga berish natijasida tijorat asosida faoliyatini yurituvchi yakka tartibda tadbirkorlarni jalb qilish orqali metropoliten daromadi hajmini uch barobarga oshirish taklifi asoslangan;

Toshkent metropolitenining asosiy faoliyatiga raqamli texnologiyani joriy qilish asosida sohada bir xil va takroriy vazifalarni bajaruvchi xizmat kesimida xodimlar sonini maqbullashtirish orqali metropoliten ishchi-xodimlarining mehnatga haq toʻlash xarajatlarini 30 foizgacha qisqartirish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Toshkent metropoliteni yoʻnalishlari boʻyicha yoʻlovchilarni tashish masofasiga muvofiq ravishda tabaqalashgan tarif boʻyicha amalga oshiriladigan toʻlov tizimini joriy qilinishi asosiy faoliyatdan tushadigan daromadni 50 foizgacha oshishiga va byudjetdan olinayotgan subsidiyalar miqdorini kamaytirish taklifi ishlab chiqilgan;

Jamoat transportida yoʻlovchi tashishda haq toʻlash uchun moʻljallangan, hisobi toʻldirib turiluvchi debet toʻlov kartasiga asoslanuvchi elektron toʻlov tizimi hisoblangan ATTO xizmatini joriy qilish orqali metropolitenda mavjud 870 yaqin katta operator va operatorlar shtati qisqartishiga erishiladi, bu oyiga 4 500,0 mln.soʻm daromadlarini oshirish va bu mablagʻlarni mahalliyashtirishni moliyalashtirishga yoʻnaltirish taklifi asoslangan;

Toshkent metropolitendagi mavjud imkoniyatlar foydalangan bekatlarning oʻtish yoʻlaklarida va platformalarda boʻsh turgan joylarni ijaraga berish natijasida boshqa daromadlardan tushadigan mablagʻlarni uch barobargacha oshirish imkoni yaratiladi. Bugungi kunda Metropoliten boshqa daromaddan olayotgan mablagʻlar miqdori oyiga 300-400 mln.soʻmni tashkil etayotgan boʻlsa, bu koʻrsatkichni mavjud imkoniyatlardan toʻliq foydalangan holda uch barobargacha yaʼni 1000-1500 mln.soʻmga oshirish va bu mablagʻlarni mahalliyashtirishni moliyalashtirishga yoʻnaltirish taklifi asoslangan;

2024-yil yanvar holatiga metropoliten mavjud 50 ta bekatlarni hisobga olganda jami xodimlar soni 6 180 shtat birligini tashkil etmoqda. ushbu shtat birlikdagi xodimlarga xar oylik mehnatga haq toʻlash bilan bogʻliq xarajatlar miqdori 29,86 mlrd. soʻmni tashkil etmoqda. Toshkent metropolitenining asosiy faoliyatiga raqamli texnologiyani joriy qilish asosida sohada bir xil va takroriy vazifalarni bajaruvchi xizmat kesimida xodimlar sonini maqbullashtirish orqali metropoliten ishchi-xodimlarining mehnatga haq toʻlash xarajatlarini 30 foizga

qadar qisqartirish (9,0 mlrd. so‘m) va iqtisod qilingan mablag‘larni mahalliyashtirishni moliyalashtirishga yo‘naltirish taklifi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida foydalanilgan tahliliy axborotlar va statistik ma‘lumotlarning O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Transport vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy manbalaridan olinganligi, tadqiqotlarning “Toshkent metropoliteni” DUKning moliyaviy hisobotlari tahliliga asoslanganligi hamda ishlab chiqilgan takliflarning amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan asosiy taklif va tavsiyalardan “Toshkent metropoliteni” DUK mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishga oid tadqiqotlarning ilmiy-uslubiy asosini ishlab chiqish, mavzuga oid ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan amaliy tavsifdagi takliflar va amaliy tavsiyalardan “Toshkent metropoliteni” DUK mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishni me‘yoriy-tashkiliy jihatdan tartibga solish, tarmoq va hududiy dasturlarni takomillashtirish, sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Toshkent metropoliteni” DUK mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy taklif va tavsiyalar asosida:

metro yo‘nalishlari bo‘yicha yo‘lovchilarni tashish masofasiga muvofiq ravishda tabaqalashgan tarif bo‘yicha amalga oshiriladigan to‘lov tizimini joriy qilinishi orqali metropoliten asosiy faoliyatidan tushadigan daromadlar hajmini 50 foizgacha oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2024-yil 14-fevraldagi 4/1190-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida metropolitenning asosiy faoliyatdan tushadigan daromadlarni 50 foizgacha oshirish imkoni yaratilgan;

jamoat transportida yo‘lovchi tashishda haq to‘lash uchun mo‘ljallangan, hisobi to‘ldirib turiluvchi debet to‘lov kartasiga asoslanuvchi elektron to‘lov tizimi hisoblangan ATTO xizmatini joriy qilish orqali Toshkent metropoliteni asosiy faoliyati xarajatlarini qisqartirish va daromadlarini oshirish taklifi Toshkent shahar metropoliteni faoliyatiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2024-yil 14-fevraldagi 4/1190-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida Toshkent metropolitenida xizmat ko‘rsatish xodimlarining mehnatga haq to‘lash fondini 30 foizga qisqartirish imkoni yaratilgan;

Toshkent metropoliteni bekatlarning o‘tish yo‘laklarida va platformalarda bo‘sh turgan joylarni tijorat asosida faoliyatini yurituvchi yakka tartibda

tadbirkorlarni jalb qilish orqali ijaraga berish natijasida metropoliten daromadi hajmini uch barobarga oshirish taklifi Toshkent shahar metropoliteni faoliyatida joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2024-yil 14-fevraldagi 4/1190-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy etish natijasida Toshkent metropoliteni hududidagi bo‘sh turgan joylarni tijorat asosida faoliyatini yurituvchi yakka tartibda tadbirkorlarni jalb qilish orqali ijaraga berish natijasida metropoliten daromadi hajmini uch barobarga oshirish imkoni yaratilgan;

Toshkent metropolitenining asosiy faoliyatiga raqamli texnologiyani joriy qilish asosida sohada bir xil va takroriy vazifalarni bajaruvchi xizmat kesimida xodimlar sonini maqbullashtirish orqali metropoliten ishchi-xodimlarining mehnatga haq to‘lash xarajatlarini 30 foizga qadar qisqartirish taklifi Toshkent shahar metropoliteni faoliyatida joriy qilingan (“Toshkent metropoliteni” DUKning 2023-yil 11-maydagi NZ-152-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy etish natijasida sohada bir xil va takroriy vazifalarni bajaruvchi xizmat kesimida xodimlar sonini maqbullashtirish orqali metropolitenning ishchi-xodimlarining mehnatga haq to‘lash xarajatlarini 30 foizgacha qisqartirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, milliy OAK e’tirof etgan jurnallarda 4 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 6 ta ma’ruza va tezislar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o‘tganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Temir yo‘l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida, Mahalliyashtirishni iqtisodiy mohiyati, Temir yo‘l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirishning nazariy jihatlari, O‘zbekistonda temir yo‘l transportini mahalliyashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari va zaruriyati bo‘yicha xorijiy mamlakatlar olimlarining fikrlari atroflicha yoritilib unga muallifning tegishli xulosalari keltirilgan.

Adabiyotlar sharhi va tahlillari, “Temir yo‘l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirish” tushunchasiga mualliflar tomonidan turlicha tariflar berilganligi xususan bu borada xorijlik olimlarning bildirgan fikrlari xilma-xilligiga guvoh bo‘lamiz.

Xususan, nemis olimi Fridrix Listning ilmiy izlanishlarida “Temir yo‘l transport tizimida import o‘rnini bosishda va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish” masalalariga muallif tomonidan milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda ishlab chiqarish kuchlarini moliyalashtirish mexanizmini rivojlantirish uchun eng qulay sharoitlarni yaratishi lozimligini ta’kidlaydi.

Amerikalik olim Maykl Porter tomonidan mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda temir yo‘l transport tizimida moliyalashtirish muammolarni o‘rganib chiqib, milliy tovar ishlab chiquvchilarni faol qo‘llab-quvvatlash, faqat ayrim omillar mavjud bo‘lsa samarali bo‘lishini xulosa qilgan. Ichki bozorda samarali raqobatni tashkil etish uchun talablarning tegishli shartlarini, uzoq muddatli imtiyozlarni qo‘llashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni vaqtida cheklash lozimligini ta’kidlagan.


Rossiyalik olim N.D. Kondratev tomonidan temir yo‘l tizimida import o‘rnini bosish va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish nazariyasiga shunday ya’ni davlatning iqtisodiy o‘sishi, aholining farovonligi, ishlab chiqarish ayniqsa temir yo‘l sanoati ishlab chiqarishni jadal rivojlanishi bilan belgilanadi deb ta’rif bergan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari ham “Temir yo‘l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirish” tushunchasiga ilmiy yondashib, o‘zlarining fikr va mulohazalarini bildirganlar.

Jumladan N.M.Mahmudov, M.R.Boltabayev, A.Sh.Bekmuradov, Sh.I.Mustafakulov va I.X.Boboyevlar tomonidan sanoat tarmoqlari ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga asosiy e’tibor qaratganlarini ko‘rsatishimiz

mumkin. Ularning ishlarida asosan mamlakatimizning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarida yirik tarmoqlarning ya'ni yengil sanoat, og'ir sanoat, avtosanoat, meva sanoatda va sanoat tarmoqlarida butlovchi buyumlarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni nazariy jihatdan yoritib berilganlar.

Mamlakatimizga 2000-yildan boshlab import o'rnini bosuvchi mahsulotlarning mahalliyashtirishga asosiy e'tibor qaratildi. Shu sababga ko'ra har yili mahalliyashtirish dasturi qabul qilinib, unda sanoat tarmoqlarida import o'rnini bosuvchi butlovchi buyumlar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga asosiy e'tibor qaratildi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozlar berildi (1-rasm).



1-rasm. Temir yo'l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirishning hukumat ta'siri darajasini aniqlash ⁶


Yuqorida nomlari qayd qilingan olimlarning ilmiy izlanishlari va xorijiy hamda milliy adabiyotlardan o'rganishlar natijasida temir yo'l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirishga quyidagicha tasniflanadi:

Temir yo'l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirish o'zi shuni ko'rsatadiki, ya'ni Toshkent metropolitenida mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan harakatlarning butun majmuasidir. Toshkent metropoliteniga davlat byudjeti, xalqaro moliya institutlari va xususiy mablag'larni shakllantirish va yo'naltirishni ta'minlash vositasidir. Bundan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, Toshkent metropolitenida mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishning asosiy vazifalaridan biri Toshkent metropoliteniga xalqaro va xususiy mablag'larni yo'naltirish mexanizmini takomillashtirish evaziga davlat byudjeti mablag'lari sarfini qisqartirishdir.

⁶ Rasm muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

Shuningdek, mazkur bobda temir yo‘l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirishning nazariy, uslubiy va huquqiy asoslari ochib berilib, bob yakunida mazkur masalalar bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Tadqiqot ishining **“Temir yo‘l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmning hozirgi holati”** deb nomlangan ikkinchi bobida temir yo‘l transportini moliyalashtirishga doirasida amalga oshirilgan ishlarning natijalari, temir yo‘l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirishga ta‘sir etuvchi omillar va rivojlangan mamlakatlarda temir yo‘l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirish ko‘rsatkichlari va uni qiyosiy baholash holati tahlil qilingan (2-rasm).



2-rasm. Temir yo‘l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirish⁷

Bugungi kunga kelib poytaxt infratuzilmasini rivojlantirish, transport tirbandligini oldini olish va yo‘lovchilarga transport sifatini oshirish maqsadida shahar transport infratuzilmasi rivojlantirmoqda. Poytaxtimizda ekologik toza transport tizimini rivojlantirishda ya‘ni Toshkent metropoliteni

⁷ Rasm muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

infratuzilmasini rivojlantirishga alohida urg'u berilmoqda. Ushbu transport tarmog'ini rivojlantirish mavjud metro vagonlarini modernizatsiya qilish va shahar bo'ylab metropoliten tarmog'ini kengaytirish maqsadida yangi bekatlar ishga tushirilmoqda. Natijada shahar aholisi va mehmonlari uchun transport qulayliklari kengaymoqda.

“Toshkent metropoliteni” davlat unitar korxonasi yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlarining 2016-2021-yillardagi tahlili metropolitendan foydalanuvchi yo'lovchilarning soni yildan-yilga ortishi, yangi bekatlar ochilishi, metropoliten parkida harakat tarkiblari va yangi xarid qilingan harakat tarkibi sonlarining ortishi, yangi ish o'rinlari tashkil qilinishi va daromad miqdorining barqaror o'sish sur'atiga ega ekanligidan dalolat beradi (1-jadval).

1-jadval

“Toshkent metropoliteni” DUK faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi⁸

| Ko'rsatkichlar | O'lch. birl. | 2016-yil | 2017-yil | 2018-yil | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil |
|-------------------------|--------------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|
| Yo'lovchilar hajmi | mln. kishi | 53,49 | 59,70 | 68,64 | 79,23 | 38,81 | 101,77 |
| Daromad | mlrd. so'm | 60,89 | 78,30 | 85,06 | 115,55 | 57,17 | 157,54 |
| Bekatlari soni | dona | 29 | 29 | 29 | 29 | 38 | 43 |
| Umumiy uzunlik | km | 38,25 | 38,25 | 38,25 | 38,25 | 59,05 | 59,05 |
| Harakat tarkiblari soni | dona | 49 | 49 | 49 | 54 | 54 | 64 |
| Ishchilar soni | dona | 2987 | 3037 | 3253 | 3944 | 4279 | 5293 |

Toshkent metropoliteni moliyaviy ko'rsatkichlarining 2016-2021-yillardagi tahlili shuni ko'rsatadiki, harakat xavfsizligi bo'yicha ko'rilgan choralarning ijobiy natijasi daromadlarning barqaror o'sishiga olib kelgan. Xususan, metropolitenning 2016-yilda 53,49 million yo'lovchilarga xizmat ko'rsatilib, 60,89 mlrd.so'm daromad olingan bo'lsa, 2021-yilda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish 1,9 martaga oshib, 101,77 million yo'lovchilarga va daromad miqdori 2,6 barobarga oshib, 157,54 mlrd.so'mga teng bo'lgan.

Mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan “Toshkent metropoliteni” DUK 2019-2021-yillarda ko'rgan zararlarni qoplanishini moliyalashtirish dinamikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, cheklangan tarifda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish natijasida yildan-yilga yo'lovchilarning ko'payishi,

⁸ “Toshkent metropoliteni” DUK faoliyatining 2016-2021-yillik statistika hisobot ma'lumotlari.

byudjet tomonidan berilayotgan subsidiyalarning miqdorini ortishiga olib kelgan (2-jadval).

2-jadval

“Toshkent metropoliteni” DUK 2019-2021-yillarda ko‘rgan zararlarni mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish dinamikasi⁹

| Ko‘rsatkichlar | O‘lch. birl. | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil |
|---|---------------------|-----------------|-----------------|-----------------|
| Fuqarolarning ayrim toifalarining transportda bepul va imtiyozli yurishi bilan bog‘liq holda tashuvchilarning olinmay qoladigan daromadlarini subsidiyalar berish orqali qoplash | mlrd. so‘m | 5,15 | 2,69 | 4,59 |
| Toshkent metropolitenida kunduzi soat 10:00 dan 16:00 gacha bo‘lgan kunduzgi davrda pensionerlarni bepul tashishda olinmay qoladigan daromadlarni qoplash | mlrd. so‘m | 3,80 | 1,88 | 3,15 |
| Cheklangan tariflar bo‘yicha yo‘lovchilar va bagajni tashish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilishi munosabati bilan shahar yo‘lovchi tashish transporti tashuvchilari ko‘radigan zararlarni qoplanishi | mlrd. so‘m | 9,0 | 27,16 | 53,52 |

Xususan, metropolitenning 2019-yilda mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan 9,0 mlrd.so‘m mablag‘ ajratilgan bo‘lsa, 2021-yilda olingan subsidiya miqdori 16,82 martaga oshib, 53,52 mlrd.so‘mga teng bo‘lgan.

E’tirof etish joizki, vujudga kelayotgan moliyaviy zararlarni davlat byudjet parametrlari doirasida to‘g‘ri taqsimlanishi va o‘z vaqtida to‘lanishi, korxonaning kelgusi faoliyatini samarali tashkil etish uchun bugungi kunning juda dolzarb masalasi hisoblanadi.


Toshkent metropoliteni moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlil qilinganda, hozirgi kunda korxonaga mahalliy moliyalashtirishni moliyalashtirishning quyidagi mexanizmlarini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni:

Toshkent metropoliteni asosiy faoliyatidan tushadigan daromadlari hisobidan moliyalashtirish;

Toshkent metropoliteni boshqa faoliyatidan tushadigan daromadlari hisobidan moliyalashtirish;

Toshkent metropoliteni mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish (3-rasm).

⁹ “Toshkent metropoliteni” DUK faoliyatining 2019-2021-yillik statistika hisobot ma’lumotlari.



3-rasm. Toshkent metropolitenida mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmining hozirgi holati¹⁰

¹⁰ Rasm muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

Cheklangan tariflarda yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatuvchi jamoat transporti korxonasi bo‘lgan Toshkent metropoliteni asosiy va boshqa faoliyatdan tushadigan daromadlar hamda mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan daromadlarini shakllantiradi. Metropoliten 2019-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan oraliqda daromad turlari bo‘yicha tahlilini ko‘radigan bo‘lsak, asosiy faoliyatdan tushadigan daromadlari 2023-yilga kelib, 2019-yilga nisbatdan 147,9 mlrd.so‘mga ko‘payib, 2,5 barobarga oshganini ko‘rishimiz mumkin (3-jadval).

3-jadval

Toshkent metropoliteni 2019-2023-yillarda daromad turlari bo‘yicha tahlili¹¹

| Daromad turlari | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil | 2022 - yil | 2023- yil |
|--|---------------|--------------|---------------|---------------|--------------|
| Toshkent metropoliteni asosiy faoliyatidan tushadigan daromadlari | 95.9 | 51.0 | 133.8 | 195.6 | 243.8 |
| Toshkent metropoliteni boshqa faoliyatidan tushadigan daromadlari | 19.6 | 6.2 | 4.7 | 8.8 | 20.7 |
| Toshkent metropoliteni mahalliy byudjet mablag‘laridan olinadigan subsidiyalar | 17.95 | 31.73 | 61.26 | 121.6 | 234.7 |
| JAMI | 133.45 | 88.93 | 199.76 | 326.0 | 499.2 |

mlrd.so‘m

Toshkent metropoliten boshqa faoliyatidan daromadlari 2019-yilga nisbatan 1,1 mlrd. so‘mga ko‘payib, 105,6 foizga oshganini ko‘rishimiz mumkin. Bu faoliyat yuqori suratlarda oshmaganligiga asosiy sabab deb shuni ta’kidlashimiz mumkinki, Toshkent metropoliteni strategik ob‘yekt bo‘lganligi hamda jamoat xavfsizligini ta’minlash maqsadida turli faoliyatni metropolitenda amalga oshirish bugungi kunga qadar taqiqlangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-oktabrdagi PQ-5260-sonli qaroriga muvofiq metropolitenda boshqa faoliyatni rivojlantirish orqali daromadlarni oshirishga imkon berilgan.

Toshkent metropoliteni cheklangan tarifda yo‘lovchilarga xizmat qilganligi hamda 2019-yildan beri mahalliy byudjet tomonidan cheklangan tariflarning oshmaganligi ammo metropolitenda yangi bekatlarning ochilishi natijasida ish o‘rinlarining yaratilishi va korxonalar xarajatlarining ortishiga sabab bo‘lgan va buning oqibatida yildan-yilga mahalliy byudjet tomonidan metropoliten xarajatlarini qoplash uchun subsidiyalar miqdori oshib borgan.

Toshkent metropolitenining mahalliy byudjetdan olinadigan subsidiyalar miqdori 2019-yilda 17,95 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa bu ko‘rsatkich

¹¹ “Toshkent metropoliteni” DUK faoliyatining 2019-2023-yillik statistika hisobot ma’lumotlari.

2023-yilga kelib 234,7 mlrd.so‘mni tashkil etgan. Tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, mahalliy byudjetdan olinadigan subsidiyalar miqdori 2019-yilga nisbatan 216,75 mlrd.so‘mga ko‘payib, 13,1 barobarga oshganini ko‘rishimiz mumkin. Bunga asosiy sabab sifatida 2019-yilgacha bo‘lgan davrda mahalliy byudjet tomonidan yetarli miqdorda mablag‘ ajratilmaganligi, yangi bekatlar va ishchilar ko‘payishi bilan xarajatlarni ortishi, cheklangan tarif miqdorini oshirilmaganligi, korxonada zarar miqdorini kechiktirib berilishi va korxonada yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish miqdorining keskin tushib ketishi, yo‘lovchilar alternativ transport turlarini tanlashi natijasida korxonada daromadlar keskin tushib ketganligini ta’kidlash mumkin.

Shuningdek so‘ngi yillarda Toshkent metropoliteni infratuzilmasini yaxshilash yo‘lovchilarga sifatli xizmatni tashkil etishga alohida e’tibor berib kelinmoqda. 2019-2023-yillar davomida Toshkent metropolitenida harakat tarkiblarni modernizatsiya qilish, yangi bekatlarni qurish va yangi harakat tarkiblarni xarid qilish borasida davlat byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish ishlari amalga oshirib kelinmoqda.

Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan Toshkent metropolitenida 2019-2023-yillarda mahalliyashtirishni moliyalashtirish yo‘nalishlarini tahlil qilinganda metropoliten harakat tarkiblarni modernizatsiya qilishga o‘rtacha yiliga 100,0 mlrd. so‘m, yangi bekatlarni qurilishiga 300-500 mlrd.so‘m hamda yangi harakat tarkiblarini xarid qilish uchun 60-70 mln.yevro miqdorida mablag‘lar sarflanmoqda (4-jadval).

4-jadval

Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan Toshkent metropoliteniga 2019-2023-yillarda mahalliyashtirishni moliyalashtirish yo‘nalishlari to‘g‘risida tahlil¹²

| Ko‘rsatkichlar | O‘lch. birl. | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|--|--------------|----------|----------|----------|----------|----------|
| Harakat tarkiblarini modernizatsiya qilish | mlrd. so‘m | 76,84 | - | 92,0 | 118,8 | - |
| Yangi bekatlar qurish | mlrd. so‘m | 378,02 | 553,52 | 1337,4 | 450,0 | 350,0 |
| Yangi harakat tarkiblarini xarid qilish | mln. yevro | 34,0 | - | 63,7 | - | 72,0 |

Hukumatimiz tomonidan Toshkent metropolitenida mahalliyashtirishni moliyalashtirish eng muhim yo‘nalishi biri sifatida metro vagonlarini modernizatsiya qilish orqali ularning xizmat muddatini uzaytirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Buning asosiy sababi bugungi kunda metro vagonlarining aksariyatining xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan va ularni ta’mir qilish zarur.

¹² Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tuzilgan.

Toshkent metropoliteni 2014-yildan xizmat muddati tugagan harakat tarkiblarini modernizatsiya qilish orqali ularning xizmat muddatini 15 yilga uzaytirish bo'yicha mahalliyashtirishni Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirish ishlari boshlanib, 2014-2023-yillar davomida metropoliten vagonlar parkida mavjud 256 ta metro vagonlaridan xizmat muddati tugagan 84 ta metro vagonlari modernizatsiya qilinib xizmat muddati uzaytirildi (5-jadval).

5-jadval

Toshkent metropoliteni harakat tarkibi vagonlari parki holati to'g'risida tahlil¹³

| Nomi | Sana | O'lchov birligi. | Soni |
|---|------------------|------------------|---------------|
| Metropolitenning ekspluatatsiya parki | 2022-yil | vagon | 256, ulardan: |
| Xizmat muddati tugagan vagonlar: | | | |
| “Toshkent yo‘lovchi vagonlarini qurish va ta‘mirlash zavodi” AJda xizmat muddatini 15 yil muddatga uzaytirish bilan kapital ta‘mirlangan | 2014-2018-yillar | vagon | 84 |
| “Toshkent yo‘lovchi vagonlarini qurish va ta‘mirlash zavodi” AJda xizmat muddatini 15 yil muddatga uzaytirish bilan kapital ta‘mirlanishi lozim | 2020-2024-yillar | vagon | 92 |
